



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 138 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
Tengelbayeva Dinora Muratovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
K. B. Numanov	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
Xamdanova Muazzamxon Xabibullo qizi	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
Otabayeva Muazzam Abdumajidovna	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
Sharipov Hayotjon Safarovich	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
Baratova Madinaxon Paxridinovna	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
Jumayeva Farzona Behzodjon qizi	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi.....	92
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане	97
Фадлиева Амина Ильхамовна	
Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari	102
Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li	
Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari	112
Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari	116
Xasanov Javohir Muxtorovich	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	125
Malikova Madina Abduraxmon qizi	
Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach	129
Berdiyeva Shakhnoza Kholmakhammatovna	
Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood	132
Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi	



ADABIYOT TA'LIMIDA IMMERSIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li

Oriental universiteti talabalar bandligi va
amaliyoti bo'limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiyot ta'limi jarayoniga immersiv texnologiyalarni integratsiya qilishning nazariy-metodologik asoslari, immersiv ta'limning kognitiv-affektiv modeli, neoeologik yondashuv va tajribaviy ta'lim nazariyasi adabiyot didaktikasi kontekstida qayta talqin qilingan.

Kalit so'zlar: immersiv texnologiyalar, adabiyot ta'limi, CAMIL modeli, badiiy matnni idrok etish, ta'lim texnologiyalari.

Abstract: This article re-examines the theoretical and methodological foundations of integrating immersive technologies into the literary education process, the cognitive-affective model of immersive learning, the neo-ecological approach, and the theory of experimental learning within the context of literary didactics.

Key words: immersive technologies, literary education, CAMIL model, perception of artistic text, educational technologies.

Аннотация: В данной статье переосмыслены теоретико-методологические основы интеграции иммерсивных технологий в процесс литературного образования, когнитивно-аффективная модель иммерсивного обучения, неологический подход и теория экспериментального обучения в контексте дидактики литературы.

Ключевые слова: иммерсивные технологии, литературное образование, модель CAMIL, восприятие художественного текста, образовательные технологии.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim paradigmasining raqamlashuvi adabiyot ta'limini ham chetlab o'tmayapti: o'quvchi va talabalarning matn bilan ishlash uslubi, diqqatni jamlash xususiyati hamda axborotni idrok etish kanallari tubdan o'zgarmoqda. An'anaviy og'zaki-matnli o'qitish usullari, ayniqsa, badiiy asarning obrazli-hissiy qatlamini yetkazishda, raqamli avlod o'quvchisi uchun yetarli darajada jalb qiluvchi bo'lmay qolmoqda. Immersiv texnologiyalar - virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR) va aralash reallik (MR) - o'quvchini badiiy asar makoni va vaqtiga "jismonan" olib kirish, personaj nuqtayi nazaridan voqealarni kuzatish, tarixiy-madaniy kontekstni vizual tarzda qayta tiklash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, empatik idrok, obrazli tafakkur va matnni chuqur tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning yangi didaktik resursini yaratadi. Amaliy jihatdan esa O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini raqamlashtirish, xususan, umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish davlat siyosati darajasidagi vazifa sifatida belgilangani mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Xalqaro tadqiqotlar VR/AR texnologiyalarining STEM fanlari, tibbiyot va muhandislik ta'limida keng qo'llanilayotganini, biroq gumanitar fanlar, xususan, adabiyot ta'limida bu borada tizimli ishlanmalar hali yetarli emasligini ko'rsatadi. J. Radianti va boshqalarning tizimli sharhida tahlil qilingan 38 ta tadqiqotning taxminan 70 foizida VR faoliyati biror pedagogik-psixologik nazariyaga tayanmagani aniqlangan^[1]. Bu holat immersiv o'qitishning nazariy asoslanmagan, texnik-texnologik jihatdan rivojlangan, ammo metodik jihatdan tizimlashtirilmagan holda amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Adabiyot ta'limi bo'yicha mavjud ishlarning katta qismi multimedia vositalari (video, taqdimot, elektron darslik)ni tavsiflash bilan chegaralanib, immersiv texnologiyalarning nazariy-metodologik zaminini, ya'ni ular qanday psixologik-pedagogik mexanizmlar orqali badiiy matn idrokini chuqurlashtirishini asoslashga yetarli e'tibor bermaydi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy tadqiqotlarda immersiv ta'limning nazariy asoslari A. Gentile^[3], M. Slater, M. Sanchez-Vives^[7], G. Makransky va G. Petersenning^[5] ilmiy qarashlari asosida shakllangan bo'lib, ularda immersiya, prezents, multimodal ishtirok, situatsion o'rganish va agentlik kabi omillarning o'quvchi motivatsiyasi hamda bilimlarni o'zlashtirishga ta'siri asoslangan. Xususan, CAMIL modeli immersiv muhitning kognitiv-affektiv ta'sir mexanizmlarini izohlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlarda esa raqamli texnologiyalar^[2], multimedia^[1] va sun'iy intellekt vositalarini ta'limga integratsiya qilishning umumdidaktik jihatlari^[4] yoritilgan. Biroq immersiv texnologiyalarni adabiyot ta'limida badiiy matnni obrazli-emotsional idrok etish, empatik tasavvur va tahliliy faoliyatni rivojlantirish vositasi sifatida qo'llash metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu asosda tadqiqot muammosi adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari hamda ularning badiiy matnni idrok etish samaradorligiga ta'siri yetarli darajada tizimli asoslanmaganligi bilan belgilanadi.

Mazkur muammodan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov orqali asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun immersiv ta'lim nazariyalarini adabiyot didaktikasiga moslashtirish, nazariy-metodologik modelni ishlab chiqish, tajriba-sinov dasturini amalga oshirish, diagnostika natijalarini statistik tahlil qilish hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Tadqiqotda, agar adabiyot darslarida VR/AR texnologiyalari CAMIL modeliga asoslangan motivatsion-tayyorgarlik, immersiv-idrok va refleksiv-tahliliy bosqichlarda tizimli qo'llanilsa, o'quvchilarning badiiy matnni idrok etish va tahlil qilish ko'rsatkichlari an'anaviy metodikaga nisbatan statistik jihatdan yuqori bo'ladi, degan ilmiy faraz ilgari suriladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi immersiv ta'lim nazariyalarini adabiyot ta'limining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirgan uch bosqichli didaktik modelning ishlab chiqilishi va uning badiiy matnni idrok etish, empatik tasavvur hamda o'quv motivatsiyasiga ta'sirining empirik jihatdan baholanishi bilan belgilanadi. Olingan natijalar adabiyot ta'limi metodikasini takomillashtirish, immersiv vositalarni ta'lim amaliyotiga ilmiy asosda joriy etish hamda tegishli ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kvazi-eksperimental, ya'ni tajriba va nazorat guruhlarida ishtirokidagi dastlabki-yakuniy diagnostika uslubi qo'llanildi. Mustaqil o'zgaruvchi sifatida adabiyot ta'limida VR/AR texnologiyalari asosidagi uch bosqichli didaktik model, qaram o'zgaruvchilar sifatida esa badiiy matnni idrok etish va tahlil qilish ko'nikmasi, empatik-obrazli tasavvur hamda o'quv motivatsiyasi belgilandi.

Tadqiqotda Samarqand viloyati Samarqand shahridagi 6-sonli, 45-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9–10-sinf o'quvchilari hamda Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" ta'lim yo'nalishining 2-kurs talabalari ishtirok etdi. Jami 96 nafar ishtirokchi teng sharoitli tajriba guruhi (48 nafar) va nazorat guruhiga (48 nafar) ajratildi. Guruhlarning boshlang'ich akademik ko'rsatkichlari, yosh va ta'lim bosqichi jihatidan qiyosiy tengligi ta'minlandi.

Tadqiqot tayyorgarlik, aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakuniy bosqichlarda amalga oshirildi. Tayyorgarlik bosqichida nazariy model va diagnostik vositalar ishlab chiqildi. Aniqlovchi bosqichda dastlabki diagnostika o'tkazildi. Shakllantiruvchi bosqichda 12 hafta davomida tajriba guruhida immersiv model, nazorat guruhida esa an'anaviy metodika qo'llanildi. Yakuniy bosqichda natijalar qayta diagnostika qilinib, statistik tahlildan o'tkazildi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyoslash va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv hamda pedagogik eksperiment metodlaridan foydalanildi. Empirik ma'lumotlarni yig'ishda badiiy matnni tushunish va tahlil qilishga doir test topshiriqlari, Likert shkalasi asosidagi motivatsion so'rovnomma, ijodiy-tahliliy topshiriqlar uchun ekspert baholash rubrikasi qo'llanildi. Badiiy matnni idrok etish uchun mezon - mazmuniy-bilish, tahliliy-baholovchi va emosional-qiymatli mezonlar asosida baholandi. Natijalar 0–100 ballik shkala bo'yicha past (0–49), o'rta (50–74) va yuqori (75–100) darajalarga ajratildi.

Tajriba guruhida mashg'ulotlar motivatsion-tayyorgarlik, immersiv-idrok va refleksiv-tahliliy bosqichlarda tashkil etildi. Bunda AR vositalari orqali asarning tarixiy-madaniy konteksti bilan tanishtirish, VR yoki 360° virtual muhit yordamida asar makoni va voqealarini immersiv idrok etish, so'ngra muhokama, yozma tahlil va ijodiy topshiriqlarni bajarish yo'lga qo'yildi.

Nazorat guruhida ayni mazmun an'anaviy o'qituvchi izohi, matn bilan ishlash va savol-javob metodlari asosida o'rganildi. Olingan ma'lumotlar anonimlashtirilib, MS Excel va SPSS Statistics dasturlarida qayta ishlandi. Natijalarni umumlashtirishda tavsifiy statistika, guruhlararo farqlarni aniqlashda Student t-mezone hamda darajalar bo'yicha taqsimotni baholashda Pearsonning xi-kvadrat mezonidan foydalanildi. Statistik ishonchlilik darajasi $p < 0,05$ etib belgilandi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Badiiy matnni idrok etish va tahlil qilish ko'nikmasining dastlabki diagnostikasi tajriba va nazorat guruhlarida o'rtasida statistik jihatdan ishonchli farq mavjud emasligini ko'rsatdi ($t = 0,41$; $p > 0,05$), bu esa guruhlarining boshlang'ich holati bo'yicha tengligini tasdiqladi. Shakllantiruvchi bosqichdan so'ng o'tkazilgan yakuniy diagnostika natijalari 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval: Badiiy matnni idrok etish va tahlil qilish ko'nikmasi bo'yicha dastlabki va yakuniy diagnostika natijalari (%)

Ko'rsatkich darajasi	Tajriba guruhi (dastlabki)	Tajriba guruhi (yakuniy)	Nazorat guruhi (dastlabki)	Nazorat guruhi (yakuniy)	O'sish farqi
Yuqori daraja	14,3%	46,8%	15,1%	24,6%	+23,3%
O'rta daraja	38,7%	42,9%	39,2%	46,1%	+2,2%
Past daraja	47,0%	10,3%	45,7%	29,3%	-25,4%

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida yuqori daraja ko'rsatkichi 14,3 foizdan 46,8 foizga, ya'ni 32,5 foizga oshgan, past daraja esa 47,0 foizdan 10,3 foizga, ya'ni 36,7 foizga kamaygan. Nazorat guruhida esa shu davrda yuqori daraja atigi 9,5 foizga oshib, past daraja 16,4 foizga kamaygan. Ikki guruh o'rtasidagi o'sish dinamikasidagi farq (yuqori daraja bo'yicha +23,3 foiz tajriba guruhi foydasiga) Pirson xi-kvadrat mezonini yordamida tekshirilganda, statistik ishonchli ekanligi aniqlandi ($\chi^2=18,62$; $df=2$; $p<0,01$).

Yakuniy diagnostikada tajriba va nazorat guruhi o'rtasidagi umumiy ball ko'rsatkichlari bo'yicha farq mustaqil ikki tanlanma uchun Student t-mezonini orqali tekshirildi: $t(94)=4,87$; $p<0,001$ bu esa tajriba guruhidagi o'sishning tasodifiy emas, balki qo'llanilgan immersiv model bilan bog'liq ekanligini statistik jihatdan tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval: O'quv motivatsiyasi, matn tahlili va empatik idrok ko'rsatkichlarining dinamikasi (ball)

Ko'rsatkich	Tajriba guruhi (dastlabki)	Tajriba guruhi (yakuniy)	Nazorat guruhi (dastlabki)	Nazorat guruhi (yakuniy)
O'quv motivatsiyasi indeksi	52,4	74,1	53,0	58,7
Badiiy matnni tahlil qilish ko'nikmasi	48,9	71,6	49,5	56,2
Empatik idrok / obrazli tasavvur	45,2	69,8	46,0	52,4

2-jadval ma'lumotlari immersiv model qo'llanilgan tajriba guruhida nafaqat bilim-ko'nikma, balki o'quv motivatsiyasi (21,7 ball o'sish) va empatik-obrazli tasavvur (24,6 ball o'sish) ko'rsatkichlari bo'yicha ham nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori dinamika kuzatilganini ko'rsatadi. Bu, ayniqsa, empatik idrok ko'rsatkichi bo'yicha farq (tajriba guruhida +24,6 ball, nazorat guruhida +6,4 ball) immersiv texnologiyalarning aynan badiiy asarning hissiy-obrazli qatlamini o'zlashtirishga nisbatan alohida ta'sirga ega ekanligini ko'rsatuvchi muhim empirik dalil sifatida talqin etiladi.

Olingan natijalar tadqiqotning ilmiy farazini tasdiqlab, adabiyot ta'limida CAMIL modeliga asoslangan uch bosqichli immersiv didaktik model badiiy matnni idrok etish va tahlil qilish ko'rsatkichlarining statistik jihatdan ishonchli o'sishiga xizmat qilishini ko'rsatdi. Ushbu holat immersiya va prezents hissining o'quvchining kognitiv hamda affektiv faoliyatiga bir vaqtda ta'sir ko'rsatishi haqidagi CAMIL modelining nazariy qoidalari bilan uyg'unlashadi. Mazkur tadqiqotning o'ziga xos jihati shundaki, ushbu ta'sir adabiy matnni o'rganish kontekstida empirik jihatdan asoslandi.

Natijalarning ijobiy dinamikasi immersiv texnologiyalardan foydalanishning o'zi emas, balki ularni nazariy jihatdan asoslangan va izchil didaktik tizim asosida qo'llash muhimligini ko'rsatadi. Motivatsion-tayyorgarlik, immersiv-idrok va refleksiv-tahliliy bosqichlarning ketma-ket tashkil etilishi o'quvchilarning dastlabki qiziqishini shakllantirish, badiiy voqelikni bevosita his qilish va undan keyingi tahliliy faoliyatni uyg'unlashtirish imkonini berdi. Shu bilan birga, tajriba jarayonida ayrim texnik noqulayliklarning kuzatilishi immersiv vositalardan foydalanishda texnik va tashkiliy omillarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlar bilan qiyoslaganda, olingan natijalar raqamli vositalarning ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'siri haqidagi mavjud xulosalarni to'ldiradi. Biroq mazkur tadqiqot immersiv texnologiyalarning aynan adabiy-badiiy idrok, empatik tasavvur va obrazli tafakkurni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini alohida ko'rsatib berdi. Bu esa immersiv texnologiyalar samaradorligi faqat texnik vositalarning mavjudligiga emas, balki ularning badiiy asarning janr, kompozitsiya, obraz va xronotop kabi xususiyatlariga metodik jihatdan moslashtirilishiga ham bog'liq ekanini anglatadi.



Natijalarning nazariy ahamiyati immersiv ta'lim nazariyalarini adabiyot didaktikasi sohasiga moslashtirish mumkinligini asoslash bilan belgilanadi. Bunda CAMIL va prezents nazariyasi badiiy matnning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llanishi lozim. Metodik jihatdan esa ishlab chiqilgan uch bosqichli modelni turli adabiy janrlar va ta'lim bosqichlarida qo'llash imkoniyati mavjud.

Biroq natijalarga o'quvchilarning dastlabki raqamli savodxonligi, VR/AR uskunalarning sifati, o'qituvchining texnologik-metodik tayyorgarligi hamda badiiy asarning immersiv muhitga mosligi kabi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, tadqiqotning 96 nafar ishtirokchi va ma'lum hudud doirasida olib borilgani, tajriba muddatining bir o'quv choragi bilan cheklangani hamda texnik vositalardan foydalanish imkoniyatlarining bir xil bo'lgani natijalarni umumlashtirishda ayrim cheklovlarni yuzaga keltiradi.

Shu bois kelgusida modelni turli adabiy janrlar va ta'lim bosqichlarida sinovdan o'tkazish, immersiv ta'sirning uzoq muddatli dinamikasini o'rganish, katta va ko'p hududli tanlanmalar asosida tadqiqotlar olib borish hamda immersiv texnologiyalarni sun'iy intellektga asoslangan adaptiv o'qitish tizimlari bilan integratsiyalash istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari adabiyot ta'limida CAMIL modeliga tayangan uch bosqichli immersiv yondashuv – motivatsion tayyorgarlik, immersiv idrok va refleksiv tahlil – badiiy matnni o'zlashtirish sifatini oshirishini ko'rsatdi. Kelgusida ushbu modelni turli adabiy janrlar, ta'lim bosqichlari va kengroq tanlanmalarda uzoq muddatli sinovdan o'tkazish, shuningdek, uni sun'iy intellektga asoslangan moslashuvchan ta'lim tizimlari bilan birlashtirish maqsadga muvofiqdir. Umuman, immersiv texnologiyalar adabiyot ta'limida oddiy raqamli vosita emas, balki puxta pedagogik asos va metodik tizimga tayangan holda qo'llanadigan samarali ta'lim strategiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva M. Bolalar adabiyoti ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish masalasida tushunchalar tahlili pedagogik muammo sifatida // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – P. 675270.
2. Atamuratov R., Xushvaqto'v A. Digital transformation in education: The beginning of a new era // Бюллетень науки и практики. – 2025. – Т. 11. – № 1. – P. 294–300.
3. Gentile A., Alesi M. Redesigning Learning Through Immersive Technologies: An Educational Perspective on Virtual and Augmented Reality // Virtual Worlds. – MDPI, 2026. – Т. 5. – № 3. – C. 33.
4. Kadirjanovich A. R. et al. Opportunities and Prospects for the Use of Immersive Technologies in Education // 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK). – IEEE, 2024. – P. 1–6.
5. Makransky G., Petersen G. B. The cognitive affective model of immersive learning (CAMIL): A theoretical research-based model of learning in immersive virtual reality // Educational Psychology Review. – 2021. – Т. 33. – № 3. – P. 937–958.
6. Radianti J. et al. A systematic review of immersive virtual reality applications for higher education: Design elements, lessons learned, and research agenda // Computers & Education. – 2020. – Т. 147. – P. 103778.
7. Slater M., Sanchez-Vives M. V. Enhancing our lives with immersive virtual reality // Frontiers in Robotics and AI. – 2016. – Т. 3. – P. 74.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.